

**Jo'rayeva Dilfuza Raxmatullayevna**

*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani*

*39-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'linda o'quvchi yoshlarga ergash gapli qo'shma gaplarni erkin tahlil qilib, gaplar tarkibidagi bosh va ergash gapni aniqlab, tushuna olish ko'nikmasini shakllantirish usullari izohlangan.*

**Kalit so'zlar:** *o'qituvchi, o'quvchi, ona tili, sintaksis, qo'shma gaplar, ergashtiruvchi bog'lovchilar.*

O'qituvchi o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim –tarbiya beruvchidir. Ta'lim – tarbiya berish , odatdagi tarzda darsni o'tish bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Agarda o'qituvchi o'z kasbini yetuk mutaxassis , kasb fidoyisi bo'lsa , hech qachon dars samarasiz bo'lmaydi. Bugungi kun davr talabi ham har bir pedagogdan izlanuvchanlikni , o'z fanining bilimdoni bo'lishni talab etmoqda. Kelajak yoshlaringning yetuk , barkamol avlod bo'lib ulg'ayishi, biz pedagoglar zimmasida. O'qituvchi zimmasidagi mas'uliyatni anglab yetsa , ta'lim taraqqiy etadi. Ta'lim taraqqiyotini esa,ona tili fanisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ona tili- millat ko'zgusi! Har bir millatning jamiyatda mavjudligini ko'rsatuvchi vosita ham bu tildir. Yoshlarimizning ona tiliga mehr-muhabbatli ,hurmat-e'tiborli qilib tarbiyalash, o'z tilini mukammal darajada bilishi, bu kabi ko'nikmalarni shakllantirish, biz ona tili fani o'qituvchilardan jonkuyarlikni talab etadi.

Avvalo, har bir fanni o'rganishdagi muammolarni hal qilib olinmasa, o'quvchilar o'rtasida fanga bo'lgan qiziqishlar so'nib boraveradi. Qaysi o'quvchi bilan suhbatda bo'lmaylik, ona tili fani juda murakkab ,degan javobni olamiz. Nega , ular bunday fikrlaydi? Sababi oddiy. O'qituvchilarning darslarda mavzularni tushuntirish jarayonida sodda usullardan foydalanmasliklari oqibatida ,o'quvchi mavzu haqida kerakli bilimni o'zlashtira olmaydi. Men pedagoglarni ayblamoqchi emasman, faqat bizning aybimiz, o'z dunyoqarashimizdan kelib chiqib, mavzularni darslik bilan cheklangan holda tushuntirib beramiz. O'quvchilarning yoshi, ularning bilim saviyasi , qabul qilish darajasiga e'tibor bermaymiz. Biz barchamiz 4 yil universitetda ta'lim olib , o'z faninimizning mutaxassisini bo'lganmiz. Yoshlarimiz bizdan ko'ra, zukko, bilimli, mustaqil fikriga ega , hozirjavob bo'lishi mumkin, ammo bizning fanimizni mutaxassis sifatida bilmaydi-ku!

Ona tili fanini o'qitish jarayonida , Sintaksis bo'limi mavjud.Bu bo'lim asosida , o'quvchilar ongida so'z birikmali, gap va uning tuzilishi va mazmuniy turlari haqida bilim va ko'nikma hosil qilinadi. Mazkur bo'limni o'qitishda ,asosan, o'qituvchilar uchun "Ergash gapli qo'shma gaplar" mavzusi murakkab mavzu.

Pedagogik faoliyatim davomida , o'quvchilarning darslikdagi mashqlarni tahlil qilishda, hamda abituriyentlarning testlarni ishlash jarayonida, ergash gapli qo'shma gapni turini aniqlashda, bosh va ergash gapni o'rnini topishda qiyinchiliklarga dush kelishmoqda. Ergash gapli qo'shma gaplarni tahlil qilish, o'quvchilar ongida yetarli darajada bilim va ko'nikma hosil qilish uchun quyidagi holatda mavzuni tushuntirilsa, albatta , samarali bo'ladi.

Birinchi o'rinda, o'quvchilarga gaplarning tuzilishiga ko'ra turini aniqlashni o'rgatish lozim. Bunda, gapning kesimi asosiy vazifani bajarishini tushuntiramiz. Kesimsiz gap shakllanmasligini aytamiz.Gaplardan kesimni topib olamiz. Kesim topish uchun, gapdagi qaysi so'z fe'llarning zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchasini olganini aniqlaymiz. Bu shakl kesim bo'lib kelgan har qanday fe'lga va boshqa so'z turkumlarida bo'ladi. Gapdagi kesimni sonini topib olamiz. Agar shu holatda shakllangan kesimlar soni miqdori ikki va undan ortiq bo'lsa, qo'shma gap bo'lishini tushuntiramiz.Masalan: Eshik sekin ochildi ( sodda gap),bir kesimlik shakliga ega. Eshik sekin ochildi va Qalandarovning yuzi ko'rindi( qo'shma gap),chunki kesim soni ikkita.

Ikkinci o'rinda, qo'shma gap turlarni aniqlash, juda oson. Bu jarayonda qo'shma gapni bog'lovchi vositalarga e'tibor qaratamiz. Ayrim darsliklarda qo'shma gap bog'lovchi vositasiga ko'ra:

1.Bog'lovchilar: a) teng bog'lovchilar ; b) ergashtiruvchi bog'lovchilar 2. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar ; 3. Ohang kabi turlarga ajratiladi.

Uchinchi o'rinda, qaysi bog'lovchilar bog'langan qo'shma gapni , qaysi vositalar ergashgan qo'shma gapni hosil qilishini o'quvchiga tushuntiriladi. Masalan: teng , zidlov , ayiruv bog'lovchilari, bo'lsa,esa so'zlari, -u,-yu,-da yuklamalari bog'langan qo'shma gapni bog'lash uchun xizmat qiladi.Ergashtiruvchi bog'lovchilar, deb so'zi, ko'makchili qurilmalar, nisbiy so'zlar, shart mayli qo'shimchasi kabilar ergash gapli qo'shma gapni bog'lash uchun foydalilanladi.

To'rtinchi o'rinda, bog'langan qo'shma gap bilan ergash gapli qo'shma gapning farqi , asosan , ikki sodda gapning qanday munosabatda birikayotgani aniqlanadi. Masalan: bog'langan qo'shma gapni teng , bir- biriga ziddab, bir biridan ayirib, inkor etib, qiyoslab bog'laymiz. Go'yoki, ikki arqonni teng qo'yib bog'langan misoli... Ergash gapli qo'shma gapda esa, gaplar bir -biri bilan hokim va tobeklik munosabatida bo'ladi. Gaplarning biri,ikkinchisini doimo izohlab keladi. Solishtiramiz: Vatanimizni jon- dilimizdan sevamiz va ko'z- qorachig'imizdek asraymiz. (bog'langan qo'shma gap). Vatanimizni jon- dilimizdan sevamiz, shuning uchun ko'z -qorachig'imizdek asraymiz.( ergash gapli qo'shma gap). ( Ko'z -qorachig'imizdek asraymiz -bosh gap, nima uchun asraysiz? Vatanimizni jon-dilimizdan sevganimiz uchun –ergash gap)

Beshinchi o'rinda, ergash gapning tarkibidagi bosh va ergash gapning asosiy vazifasini tushuntiramiz.(Aniqlanayotgan, izohlanayotgan gap- bosh gap, aniqlaydigan ,izohlaydigan ,bosh gapni to'ldirib keladigan gap-ergash gap).

Oltinchi o'rinda, o'quvchi uchun murakkab bo'lган jarayon, bosh gap va ergash gapning o'rnini aniqlay olmasligi. Bunda biz qaysi vositalar bosh gapning tarkibida, qaysi vositalar ergash gapning tarkibida kelishini o'rgatamiz. Shundan so'ng, o'quvchilar hech qiyalmay , bosh va ergash gapning o'rnini topa olishadi. –ki yuklamasi va ko'makchili qurilmalar doimo bosh gap tarkibida keladi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar, deb so'zi, nisbiy so'zlarning so'roq qismi hamisha ergash gap tarkibida keladi. Bosh gap va ergash gapning tarkibidagi vositaga qarab, gaplarning o'rnini hech qiyalmay topa olish mumkin. Masalan: Siz shuni unutmang*ki*(bosh gap), kurashchilar yolg'iz emas(ergash gap).

Bosh gap	Ergash gap
Shunisi.....ki,	Kimda,nimada,qanday?
..... shuki,	deb
.....sinki.....	Go'yo,go'yoki,xuddi
.....shunday.....ki	Chunki,negaki
Ko'makchili qurilmalar	toki
.....shuning uchun...ki	Agar,agarda, basharti, mabodo

Ergash gapli qo'shma gaplarni turini aniqlayotganda ham maxsus shakllarga e'tibor qaratilsa, o'quvchi bu mavzu haqida bilim va ko'nikmani hosil qila oladi.

Darslarda turli interfaol “Zanjir” , “Issiq kartoshka”,Charxpalak” metodlaridan foydalanilsa, mavzuni o'quvchi ongida singdirish o'qituvchiga qulaylik yaratadi. Bunda sinf o'quvchilari guruhlarga bo'linadi. Birinchi guruh biror gap misol keltiradi, ikkinchi guruh bu gapni izohlab, davom ettirib, ergash gapli qo'shma gapga aylantiradi, uchinchi guruh esa bu gap tarkibidagi bosh va ergash gap, bog'lovchi vositani va turini aytadi. Bugungi kunda AKT va turli interfaol metodlardan foydalanib .darslar tashkil etilmasa, o'quvchidan kutilgan natija olish mushkul. Bugun texnika asri.

O'qituvchi go'yoki bog'bon, ko'chatni qanday o'tqazib, parvarishlasa , hosil ham mehnatga loyiq bo'ladi. Biz ustozlar, yoshlар qalbida o'z ona tiliga mehr-muhabbatli , qiziquvchan, qiyinchilikka qaramasdan tilimizni o'rganishga intiluvchi kadr bo'lib yetishishiga birgalikda harakat qilaylik!!!

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mengliyev .B. O'zbek tilidan universal qo'llanma .Toshkent.”Akademnashr” -2015
2. A.Nurmonov, A Sobirov,N.Mahmudov,N.Qosimova,Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili.(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I,II,III bosqich talabalari uchun darslik) .Toshkent.”Ilm ziyo”- 2013